



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGINING BUYRUG‘I

3-dekabr 2025-yil.

23-251-son

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimi xodimlarini “Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” elektron platformasida o‘qitishni tashkil etish hamda xodimlar tomonidan xizmat safarlari va rasmiy tadbirlarda olinishi mumkin bo‘lgan sovg‘ani tasarruf etish tartibini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-228-son qaroriga muvofiq, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (keying o‘rinlarda – Vazirlik) tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2024-yil 30-sentabrdagi 6-son, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2024-yil 27-sentabrdagi 55-QQ-son qarori (ro‘yxat raqami 3565, 2024-yil 30-oktabr) bilan tasdiqlangan “Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” elektron platformasida o‘qitishni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomga asosan davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirishga qaratilgan “Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” elektron platformasida (keying o‘rinlarda – Virtual akademiya) o‘qitishni tashkil etish tartibi belgilanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2023-yil 11-martdagi 54-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3425, 2023-yil 13-mart) bilan tasdiqlangan Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo‘lgan sovg‘a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to‘g‘risidagi nizomga asosan davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa

rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi belgilanganligi **ma'lumot uchun qabul qilinsin.**

2. **Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti** (S. Axmedov), **Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi** (O. Samadov) Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining so'roviga ko'ra, malaka oshirish muddati kelgan xodimlarning ro'yxatini taqdim etishga va Virtual akademianing maxsus o'quv kurslarida xodimlarning ishtirokini ta'minlashga mas'ul hisoblanadi.

3. Vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, vazirlikning hududiy bo'linmalari va vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar "Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi" elektron platformasida o'qitishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomda (ro'yxat raqami 3565, 2024-yil 30-oktabr) belgilangan tartibda Virtual akademiya xodimlarini o'qitish choralarini ko'rsin.

4. Vazirlik markaziy apparatida xodimlar tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'alar hisobini yuritish bo'yicha:

Ishlar boshqarmasi sovg'aning qiymatini aniqlash va uni saqlash, Sovg'alar reyestrini yuritishga;

Moliya-iqtisod boshqarmasi sovg'ani belgilangan tartibda Vazirlik balansiga kiritishga;

Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi sovg'alar bilan bog'liq masalalarni nazorat qilish va muvofiqlashtirishga mas'ul hisoblanadi.

5. **Xalqaro munosabatlar departamenti** (Sh.Teshaboyev) va boshqa **tarkibiy tuzilma rahbarlari** bilan birgalikda tegishli xizmat safarlari va rasmiy tadbirlarda vazir o'rinbosarlari (maslahatchilari) hamda markaziy apparat tarkibiy tuzilmalar rahbarlari va xodimlari tomonidan qabul qilib olingan sovg'alarni **uch ish kuni ichida** sovg'aning qiymatini aniqlash va uni saqlash uchun **Ishlar boshqarmasiga** taqdim etilishini ta'minlasin.

6. **Ishlar boshqarmasi** (D. Yuldashxuja) 2026-yil 1-aprelga qadar xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan, Iqtisodiyot va moliya vazirligi markaziy apparati balansiga qabul qilib olingan sovg'alar uchun vazirlik markaziy apparatida ko'rgazmali burchak tashkil etsin.

7. **Tashkiliy ishlar va ijro intizomi boshqarmasi** (F. Xamdamov) bir kun muddatda mazkur buyruqning mas'ul ijrochilarga yetkazilishini ta'minlasin.

8. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Vazir



D. Kuchkarov